

BIRJAVIY TAHLIL

2023

Oktabr



www.uzse.uz



1100170, O'zbekiston, Toshkent
sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 107



Mundarija


BIRJAVIY TAHLIL	3
Birjaviy savdolar tahlili.....	4
Birjaviy savdo maydonlari tahlili.....	5
"Bond Market" obligatsiyalar bozori	6
Main Board bo'yicha top 10 aksiya	7
Iqtisodiy sohalar bo'yicha tahlil.....	8
Birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi	9
Birja kotirovkalash varag'i.....	10
Savdo narxlarining o'zgarishi tahlili.....	11
LISTINGAN TASHQARI SAVDO MAYDONI	12
LTSMda savdolar tahlili.....	13
LTSM savdo maydonlari tahlili	14
Main Board bo'yicha Top 5 aksiya.....	15

BIRJAVIY TAHLIL

Birjaviy savdolar tahlili

2023 yil oktabr oyida “Toshkent” RFB savdo maydonlarida birja kotirovkalari varaqasidagi emitentlarning qimmatli qog`ozlari bilan jami 20,68 mlrd so`mlik 39 439 dona bitim tuzildi. Bitimlar obyektlari 81 ta emitentning 3,73 mlrd dona qimmatli qog`ozlari bo`ldi.

2023 yil oktabr oyi bo'yicha savdolar hajmi va bitimlar soni



Yakunlangan oy davomida eng ko`p bitimlar 10 oktabrda amalga oshirilgan bo`lib, 3 434 donani; eng kam bitimlar esa 27 oktabr sanasida tuzilgan bo`lib, ularning soni 1 093 donani tashkil etdi.

Bitimlarning eng katta hajmi 4 oktabr kuni qayd etilgan bo`lib, kun davomida 4,43 mlrd so`mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan. Oktabr oyida o`rtacha kunlik savdolar soni 1 878 ta bitimni; o`rtacha kunlik bitimlar hajmi esa 984,54 mln so`mni tashkil etdi. “Stock Market” aksiyalar bozorining “Main Board” savdo platformasidagi bitimlarning o`rtacha kunlik hajmi 401,87 mln so`mni tashkil etdi. Hisobot oyida “Stock market” aksiyalar bozorining “Nego Board” savdo maydonida 9,82 mlrd so`mlik 62 ta bitim tuzildi.

“Bond Market” obligatsiyalar bozorining “Main Board” platformasida jami 2,41 mln so`mlik 61 ta bitim tuzildi.

Birjaviy savdo maydonlari tahlili


“Stock Market” aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” asosiy savdo platformasida 75 ta emitentning aksiyalari bilan jami 8,44 mlrd so`mlik 39 316 ta bitimlar qayd etildi.

Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog`ozlar soni	Bitimlar hajmi, so`m
UZSE STOCK	Main Board	39 316	1 824 925 831	8 439 253 603,66
	Nego Board	62	1 903 320 804	9 821 546 845,28
UZSE BOND	Main Board	61	13 203	2 414 453 894,45
JAMI		39 439	3 728 259 838	20 675 254 343,39


“Stock Market” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi “ELEKTRQISHLOQQURILISH” AJning 32 dona /EQUU/ oddiy aksiyalari bilan 1,35 mlrd so`mlik bitim tuzildi. Nominal qiymati 5 000,00 so`mni tashkil etuvchi qimmatli qog`ozlarning narx diapazoni 369 000,00 – 763 200,00 so`m oralig`ida bo`ldi.

“Stock Market” aksiyalar bozorining T1 – “Nego Board” savdo platformasida 5 ta emitentning 9,82 mlrd so`mlik 62 ta bitim qayd etildi. Ushbu bo`limda tuzilgan bitimlarning eng katta hajmi “Ipoteka-Bank” ATIBning /IPTB1/ qimmatli qog`ozlari bilan bo`lib o`tgan 2,87 mlrd so`mlik bitimga to`g`ri keldi.

Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar soni, dona



Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar hajmi, mlrd so'm



"Bond Market" obligatsiyalar bozori

Hisobot davri yakuniga ko`ra "Bond Market" obligatsiyalar bozorining "Main Board" savdo maydonida quyidagi uchta emitentning to`rtta obligatsiyalari bilan umumiy qiymati 2,41 mlrd so`mlik 61 ta bitim tuzildi:

- "Biznes Finans Mikromoliya Tashkiloti" MChJ /BFMT3V2/ – 1,21 mlrd so`m va /BFMT3/ - 3,00 mln so`m.

- "Imkon finans mikromoliya tashkiloti" AJ /IFMT3/ – 1,19 mlrd so`m;

- "HAMKOR INVEST LIZING" MChJ /HKIL3/ – 14,00 mln so`m.


Bugungi kunda "Toshkent" RFB birja kotirovkalari varaqasida 8 ta emitentning 10 ta qarz qimmatli qog`ozlari mavjud.

№	Emitent	Tiker	Emissiya sanasi va So`ndirilish sanasi	Kupon stavkasi	Bitta bondning nominal qiymati (so`m)	Emissiya qilingan bondlar soni
1	"Asia Alliance Bank" ATB	AABK1	15.07.2019-15.07.2026	MB asosiy stavkasiga +4%	1 000 000	50 000
2	"Kapitalbank" ATB	KPB4	13.05.2020-21.05.2027	MB asosiy stavkasiga +5%	1 000 000	50 000
3	"Chust Rir Mikrokredit Tashkiloti" MChJ	CRMT3	07.04.2021-30.03.2024	24,00%	1 000 000	2 000
4	"Artel Electronics" MChJ	AREL2	10.06.2022-29.12.2023	21,50%	100 000 000	100
		AREL3	10.06.2022-29.12.2023	22,50%	100 000 000	100
5	"O`zagrolizing" AJ	UZAL2	13.09.2022-10.03.2024	23,00%	1 000 000	50 000
6	"Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MChJ	BFMT3	16.09.2022-30.08.2025	27,00%	1 000 000	10 000
		BFMT3V2	09.10.2023-13.09.2026	27,00%	100 000	200 000
7	"Imkon finans mikromoliya tashkiloti" MChJ	IFMT3	10.04.2023-25.03.2026	28,00%	1 000 000	6 000
8	"Hamkor invest lizing" MChJ	HKIL3	25.04.2023-06.05.2023	18,00%	1 000 000	17 500

Main Board bo'yicha top 10 aksiya


2023 yil oktabr oyida “Toshkent” RFBning “Stock Market” aksiyalar bozorining G1- “Main Board” maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha top 10 aksiyalar.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top 10 aksiya, mlrd so'm



2023 yilning oktabr oyi bo'yicha 1,35 mlrd so'mga teng bo'lgan eng katta hajmdagi bitimlar “Elektrqishloqqurilish” AJning /EQQU/ oddiy aksiyalar bilan qayd etilgan. Undan keyingi o'rinlarni mos ravishda 1,09 mlrd va 1,04 mlrd so'mga teng bo'lgan “Hamkorbank” ATBning /HMKB/ va “Ipoteka-Bank” ATIBning /IPTB/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bitimlar egallagan. Yuqori 10 talikni “Biokimyoy” AJning /BIOK/ hamda “UzAuto Motors” AJning /UZMT/ aksiyalari bilan tuzilgan mos ravishda 239,31 mln va 195,23 mln so'mlik bitimlar yakunladi.

Bitimlar soni bo'yicha Top 10 aksiya, dona




Oy davomida eng ko'p bitimlar “O'z sanoatqurilishbank” ATBning /SQBN/ aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib, oyiga 10 014 dona bitimni tashkil etdi. 2 947 ta bitim bilan “Ipoteka-Bank” ATIBning /IPTB/ aksiyalari Top 10 talikda ikkinchi o'rinni egalladi. Yuqori o'ntalikni “O'zmetkombinat” AJning /UZMK/ oddiy va “Ipoteka-Bank” ATIBning /IPTB1/ imtiyozli aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 921 ta va 908 ta bitimlar yakunlagan.

Iqtisodiy sohalar bo'yicha tahlil


Bitimlar hajmi bo'yicha iqtisodiy tarmoqlar ichida banklar va agrosanoat sohasining qimmatli qog'ozlari yetakchi bo'ldi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 7,79 mlrd so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja aylanmasining 37,69 foizini tashkil etdi. Agrosanoat kompaniyalari qimmatli qog'ozlari bilan – 4,95 mlrd so'm hamda boshqa tarmoqlarga taaluqli korxonalarining qimmatli qog'ozlari bilan – 3,42 mlrd so'mlik bitimlar qayd etildi. Eng kam hajmdagi bitimlar esa "Transport" sektoriga tegishli emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bo'lib, 5,62 mln so'mni yoki umumiy birja aylanmasining 0,03 foizini tashkil etdi.

2023-yil Oktabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar hajmi, %




Eng ko'p bitimlar soni bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bo'lib, 23 744 ta bitimni tashkil etdi. Sanoat sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 3 350 dona, sug'urta sohasiga aloqador emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 2 934 ta bitim tuzildi. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha eng kam bitimlar soni "Aloqa" tarmog'ida – 581 dona, "Transport" tarmog'ida – 224 dona va "Lizing" sohasida – 28 donaga teng bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi.

2023-yil Oktabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar soni, dona



Birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi

2023 yil Oktabr oyi uchun birja kotirovkalari ro`yxatiga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi, trln so`m



Hisobot davrida birja kotirovkalari ro`yxatiga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvida 142,18 trln so`mdan 153,53 trln so`mgacha bo`lgan diapazonda o`zgarishlar qayd etildi.

Bozor kapitallashuvining eng katta hajmi 24 oktabrga to`g`ri kelib, 153,53 trln so`mgacha ko`tarilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 9 oktabr kuni qayd etilgan bo`lib, ushbu davrda emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 142,18 trln so`mni tashkil etgan.

2023 yil 31 oktabr holatiga ko`ra, birja kotirovkalari varag`iga kiritilgan aksiya emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 152,22 trln so`mni tashkil etdi. Oy boshi bilan solishtirganda ushbu ko`rsatkich 3,10%ga oshdi. Davr oxirida aksiya emitentlari soni 108 donani tashkil etdi.

Birja kotirovkalash varag'i


2023 yil 1 oktabr holatiga ko`ra, birja kotirovkalari varaqasida 114 ta emitentning 171 ta instrumentlari mavjud edi.

Hisobot davrida “Buxoroneftgazparmalash” AJning tegishli ravishda BNGP va BNGPP birja tikeri ostida oddiy va imtiyozli aksiyalari birja kotirovkalari varaqasiga kiritildi. Shuningdek, “BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TOSHKILOTI” MChJ BFMT3V2 birja tikeri ostida yana bir obligatsiya chiqardi. Shu bilan birga, ixtiyoriy asosda emitentning talabiga binoan “Infinity Insurance” AJ /PFIS/ oddiy aksiyalari birja kotirovkalari varaqasidan chiqarib tashlandi.

Natijada, 2023 yil 31 oktabr holatiga ko`ra, birja kotirovkalari varaqasida 114 ta emitentning 173 ta instrumenti mavjud bo`lib, ulardan: 108 tasi aksiyalar, ulardan 2 tasi obligatsiyalar emitentlari; 6 ta emitent - faqat obligatsiya emitentlari hisoblanadi.


Listing toifalari bo`yicha birja bitimlari to`g`risidagi ma'lumot

Bitimlar soni, dona



■ Premium ■ Standart ■ Tranzit











Bitimlar hajmi, mlrd so'm



■ Premium ■ Standart ■ Tranzit

Savdo narxlarining o'zgarishi tahlili

2023-yil oktabr oyidagi eng likvidli qimmatli qog'ozlar** narxidagi o'zgarishlar

№	Emitent nomi Tiker	03.10.2023yildagi yopilish narxi	31.10.2023yildagi yopilish narxi	Narxlar o'zgarishi	Narxlar o'zgarishi dinamikasi
1	<Ipak Yo'li> AITB IPKY	47,90	74,98	56,53%	
2	<Hamkorbank> ATB HMKB	56,51	69,99	23,85%	
3	<Chilonzor buyum savdo kompleksi> AJ CBSK	2,43	2,79	14,81%	
4	<Hamkorbank> ATB HMKB1	52,99	57,00	7,57%	
5	<Ipoteka bank> ATIB IPTB	0,91	0,93	2,20%	
6	<O'zsanoatqurilishbank> ATB SQBN	9,99	10,08	0,90%	
7	<Kapital sug'urta> AJ KASU	0,02	0,02	0,00%	
8	<Kogon yog' - ekstraksiya zavodi> AJ KYEZ	450,98	438,49	-2,77%	
9	<O'zmetkombinat> AJ UZMK	7 299,00	6 699,00	-8,22%	
10	<Ipoteka bank> ATIB IPTB1	4,24	3,50	-17,45%	

* Hisobot oyidagi birinchi bitimning ochilish narxlari va oxirgi bitimning yopilish narxlari taqqoslangan.

**Bitimlar soni bo'yicha top 10ta qimmatli qog'ozlar eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qabul qilingan (7-bet)

Joriy yilning 3 oktabrdagi aksiyalarning yopilish narxi bilan 31 oktabrdagi yopilish narxini solishtirsak, eng ko'p savdo qilingan aksiyalar orasida 6 ta emitentning qimmatli qog'ozlari narxi oshishni qayd etgan. Narxlarning eng sezilarli o'sishi "Ipak Yo'li" AITBning /IPKY/ va "Hamkorbank" ATBning /HMKB/ aksiyalarida kuzatilib, o'sish mos ravishda **▲56,53%** va **▲23,85%** ni tashkil etdi. "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJning /CBSK/ oddiy aksiyalari narxi ham sezilarli darajada oshib, 2,43 so'mdan 2,79 so'mga ko'tarildi va o'sish **▲14,81%** ni tashkil etdi.

"Kapital sug'urta" AJning /KASU/ oddiy aksiyalarining savdo narxi 31 oktabr kuni oy boshidagi darajani saqlab qoldi

"Kogon yog' - ekstraksiya zavodi" AJning /KYEZ/ qimmatli qog'ozlari bo'yicha narxlar **▼2,77** foizga, "O'zmetkombinat" AJning /UZMK/ oddiy aksiyalari va "Ipoteka" bank" ATIBning /IPTB1/ imtiyozli aksiyalari narxi ushbu davr oxirida mos ravishda **▼8,22%** va **▼17,45%**ga pasaydi.



LISTINGAN TASHQARI SAVDO MAYDONI

(LTSM – uyushgan nobirjaviy bozor)




LTSMda savdolar tahlili

Ko`rib chiqilayotgan davrda “Toshkent” RFBning listingdan tashqari savdo maydonlari (LTSM)da 81 ta emitentning 58,48 mln dona qimmatli qog`ozlari bilan jami 1,37 mlrd so`mlik 5 106 ta bitimlar qayd etildi.

Kundalik hisobda eng ko`p bitimlar 30 oktabr kuni amalga oshirilgan bo`lib, 326 donani; eng kichigi esa 12 oktabrda qayd etilgan bo`lib, 202 dona bitimni tashkil etgan. Bitimlarning eng katta hajmi 17 oktabr kuniga to`g`ri kelib, kun davomida 483,99 mln so`mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan.

Oktabr oyida o`rtacha kunlik savdo bitimlari soni 243 ta bitimni; o`rtacha kunlik savdolar hajmi 65,15 mln so`mni tashkil etdi. “SME Stock” aksiyalar bozorining “Main Board” listingdan tashqari savdo maydonchasi bo`yicha o`rtacha kunlik bitimlar hajmi 65,15 mln so`mni tashkil etdi. 2023 yil oktabr oyida “SME Stock” aksiyalar bozorining “Nego Board” savdo platformasida hamda LTSM “SME Bond” obligatsiyalar bozorining “Main Board” savdo platformasida bitimlar qayd etilmadi.




LTSM savdo maydonlari tahlili

“SME Stock” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” listingdan tashqari asosiy savdo maydonida 81 ta emitentning aksiyalari bilan jami 1,37 mlrd so`mlik 5 106 ta bitimlar qayd etildi.


Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog`ozlar soni	Bitimlar hajmi, so`m
SME STOCK	Main Board	5 106	58 483 359	1 368 171 358,00
	Nego Board	0	0	0,00
SME BOND	Main Board	0	0	0,00
JAMI		5 106	58 483 359	1 368 171 358,00

"SME Stock" aksiyalar bozorining G1 - "Main Board" savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi "O'ZLITINEFTGAZ" AJning 480,22 mln so`mlik 1 715 dona /A011030/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan. Nominal qiymati 5 000,00 so`m bo`lgan aksiyalarning bozor narxi diapazoni 280 000,00 – 300 000,00 so`mni tashkil etdi.

Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar soni, dona




Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar hajmi, mlrd so`m



Main Board bo'yicha Top 5 aksiya


2023 yil oktabr oyida “Toshkent” RFBning “SME Stock” aksiyalar bozorining G1-“Main Board” listingdan tashqari savdo maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha top 5 aksiyalar.

Bitimlar soni bo'yicha Top 5 aksiya, dona



Oy davomida eng ko'p bitimlar soni “O'zsanoateksport” AJning /A056290/ aksiyalari bilan tuzilgan 1 418 dona bitimga to'g'ri keldi. 441 ta bitim bilan “Baraka” IF AJning /A042910/ aksiyalari Top-5likdan ikkinchi o'rinni egalladi. Top-5likni “MULK-SARMOYA BU” AJning /A015030/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 251 ta bitim yakunladi.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top 5 aksiya, mlrd so'm



Bitimlarning eng katta hajmini “O'ZLITINEFTGAZ” AJning /A011030/ aksiyalari bilan tuzilgan 480,22 mln so'mlik bitimlar tashkil etdi. Undan keyingi o'rinlarni “Toshkentvino Kombinati” AJning /A028090/ va “O'ZKIMYOPOLIMERSAVDO” AJning /A014810/ aksiyalari, tegishli ravishda 251,62 mln so'm va 75,96 mln so'mlik oddiy aksiyalar bilan tuzilgan bitimlar egalladi.